

**6-7 yoshli bolalarni maktabga tayyorlashda oila, maktab hamkorligi
vositasidan foydalanish****Namangan viloyati Kosonsoy tumani, 2-DMTT direktor orinbosari
Karimiva Muslima Abdugafarovna**

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotining oila va maktab bilan hamkorlik masalalari va undan ko'zlangan maqsad va natijalar bayon etilgan. Bolalarni maktabga tayyorlash jarayonining dolzarbligi hamda tarniyachining vazifalari haqida yoritilgan. Maktabga tayyorlash qizg'in jarayonligi, maktabga o'tish davrining xususiyatlari bo'yicha fikr va mulohazalar berilgan.

Kalit so'zlar: oila, maktab, maktabgacha ta'lim, yozish ko'nikmasi, malaka, bilim, mashq maktabga tayyorlov, maktabgacha yosh.

Maktabgacha ta'lim tizimini yaxlit uzluksiz ta'lim tizimining muhim bo'g'ini sifatida yanada takomillashtirish, maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarmog'ini kengaytirish hamda moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, ularni malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlash, bolalarni har tomonlama intellektual, ma'naviy-estetik va jismoniy rivojlantiruvchi zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarini ta'lim-tarbiya jarayoniga joriy etish, ularning maktabga tayyorgarlik darajasini tubdan oshirish maqsadida juda ko'p islohatlar olib borildi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni tarbiyalash va rivojlantirishda, ularni maktabga tayyorlashda yetakchi rol o'ynaydi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari oila va jamiyatning bolalarga g'amxo'rlik qilish, milliy hamda mintaqa xususiyatlarini hisobga olgan holda bolalarni har tomonlama barkamol qilib tarbiyalash va rivojlantirishga bo'lgan ehtiyojni qondirish maqsadida tashkil etiladi. Tashkilotlar mustaqil ravishda, o'z tashabbusi bilan o'z faoliyatiga taalluqli, agar ular qonunchilikka va pedagogik prinsiplarga mone'lik qilmasa har qanday qaror qabul qilishga haqlidir. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyaviy-ta'limiy ishlar sifati, bolalar va otaonalar huquqiga jamiyat hamda Davlat manfaatlariga rioya qilish uchun mas'uldir. Maktabgacha yoshdagi bolalarni rivojlantirishda maktabgacha ta'lim tashkilotlari, oila, maktab va maktabgacha ta'lim tashkiloti hamkorligini yo'lga qo'yishga alohida e'tibor qaratilgan. Bundan ko'zlangan maqsad-farzandlarimizning jismoniy, shaxsiy (ruhiy), aqliy va maxsus tayyorgarligi uchun har tomonlama qulay hamda sog'lom muhitni yuzaga keltirishdir. Maktabgacha yoshdagi bolaning ta'lim olish huquqi, uni kamoloti va rivojlanishi uchun oilada qanday imkoniyatlar yaratilishi lozimligi, ning aholi bilan ishlash uslublari va kuzatuvini tashkil qilish kabi masalalar ushbu dissertatsiyada batafsil yoritildi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning kamolotida yangicha yondashuv va uni targ'ib qilishda oila, ishtiroki 3-7 yoshli bolalar rivojlanishida,

aynan maktabgacha ta'lim tashkilotlariga qatnamayotgan bolalarga asosiy e'tibor berilishining muhimligini tushunish, maktabgacha ta'limni qo'llab quvvatlashda ota-onalarga ko'maklashish zarur. Maktabgacha yoshdagi bolalarning manfaatlari bilan bog'liq uchta muhim tamoyil:

1. Bolaning rivojlanishida ta'limning muhimligi;
2. Maktabgacha yoshdagi bola ta'limiga ta'sir qiluvchi oilaning ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarini o'rganish;
3. Oilaning maktabgacha yoshdagi bolani rivojlanishida munosabatini yanada takomillashtirish.

Yurtimizda yosh avlodning har jihatdan barkamol bo'lib voyaga yetishi uchun keng imkoniyatlar yaratilib, ko'pgina xayrli ishlar amalga oshirilayotir. Onalik va bolalikning ijtimoiy muhofazasi, sog'lom oila muhitini, sog'lom turmush tarzini shakllantirish, bolalarning bo'sh vaqtini to'g'ri tashkil etish, ularni sportga, qo'shimcha ta'limga jalb etish, sog'lomlashtirish va profilaktik tadbirlar, kasbga yo'naltirish, har taraflama uyg'un rivojlan ganetuk shaxsni tarbiyalash borasidagi sa'y-harakatlar e'tiborga molikdir. Hech ikkilanmay aytish mumkinki, dunyodagi birorta davlat ertangi kun egalari bo'lgan yosh avlodning ma'naviy va jismoniy kamoloti uchun ularning zamon talablariga mos bilim olishi, hunar tanlashi, qobiliyati va iqtidorini erkin namoyon qilishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratib berish bilan birgalikda doimiy diqqat markazida tutishida, qayg'urishida O'zbekistonga tenglasha olmaydi. Vazifalardan biri – yosh avlodni vatanparvarlik, insonparvarlik kabi xislatlar bilan birga yuksak ma'naviyat egasi bo'lish hamda boshqa millatlarga nisbatan hurmat bilan qaraydigan, insoniy qadr-qimmatni va milliy urf-odatlarini e'zozlaydigan insonlar qilib tarbiyalashdir. Bugungi kunda maktabgacha ta'lim tizimida ta'lim-tarbiya jarayonini modernizatsiya qilinishi, moddiy texnika bazasini yaratilishi uni tarkibiy jihatdan qayta qurish, zamonaviy axborot texnologiyalardan foydalanish bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashning asosiy poydevori hisoblanadi. Bolalarning maktabgacha ta'lim tashkilotlari va oilada ta'lim olishlari "Maktabgacha ta'lim va tarbiya" to'g'risidagi Qonunda belgilab qo'yilgan. Shunday ekan, bolalar maktabga borgunlariga qadar oila unga elementar harakatlardan tortib olamni va undagi voqea-hodisalarni idrok etish, anglash borasidagi dastlabki ko'nikmalarini shakllantiradi. Maktabgacha ta'limga qamrab olinmagan bolalarning ota-onalari uchun tayyorlangan besh va yetti nomdagi rasmlı kitob amaliyotda samarali natija berdi. Kitob yordamida bolalarning maktabda yaxshi o'qishiga, ularda o'quv motivlarini shakllanishiga erishilmoqda. Zero, bolalar oilada tarbiyalanadi, unda sodir bo'ladigan voqealar ularga katta ta'sir ko'rsatadi. Ota-onalar birinchi galda o'z farzandining individual xususiyatlari va o'qishga bo'lgan munosabati haqida boshlang'ich sinf o'qituvchisiga to'g'ri, asosli ma'lumot berishlari zarur. Agarda ota-onalar farzandining sog'ligi, intilishlari, harakatlari, fe'l-atvori, o'qishga bo'lgan umumiy tayyorgarligi to'g'risida aniq ma'lumot bersa, uni maktabga

tayyorlash oson kechadi. Barcha ota-onalar o'z farzandining yutuqlaridan xabardor bo'lishni xohlaydilar.

Pedagoglar ota-onalar bilan bola haqidagi tasavvurlarini chuqurlashtirish va imkon qadar samarali ishlash uchun bolaning uydagi va maktabgacha ta'lim tashkilotidagi holati, uning kuchli va zaif tomonlarini, tashvish tug'diradigan barcha jihatlarni tahlil qilishlari kerak. Ota-onalar bolani maktabga tayyorlashda avvalo uning jismoniy o'yindagi harakatlarini, rasm chizishga bo'lgan intilishlarini, ko'rgan, bilgan voqea-hodisalarini aytishga, musiqa tinglash, o'yinchoqlarni ehtiyotlab saqlash, kiyimlarni kiyish, yechish, ota-onaga yordam berish kabi faoliyatlarni kuzatib, u haqida ma'lumotga ega bo'lishlari lozim. Unda ota-ona bolaning yuqoridagi faoliyatlarida aqliy rivojlanish darajasi va mustaqilligi qanday tarkib topayotganligiga asosiy e'tiborni qaratishi kerak. Chunki, bularning barchasi bolaning o'yini, mehnati jarayonidagi aqliy darajasi, mustaqilligi, tengdoshlari bilan bo'ladigan muomala va munosabatlarida o'z ifodasini topadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning maktab ta'limiga tayyorgarligida shaxsiy tayyorligi, atrof-muitga, kattalarga, tengdoshlariga, o'simliklar dunyosiga, tabiiy xodisalariga, shaxsiy madaniyatni shakllanganligini nazarda tutadi. Aqliy tayyorgarlik bola obrazli va mantiqiy fikrlashi, tasavvurning, odamiylikning, bilimga qiziqishning, mustaqilligining, o'zini-o'zi nazorat qilishga, hamda o'quv faoliyatini kuzatish, eshitish, eslab kolish, solishtirish kabi asosiy turlarini bilishni z o'ichiga oladi.

Bolaning maktabda ta'lim olishi samarasi uning ona tilini bilishiga va nutqni qanchalik rivojlanganligiga ko'prok bog'lik bo'ladi. Chunki butun o'quv faoliyati shularga, ya'ni nutiqiy mantiqiy rivoji, bolaning kattalarning yordamisiz mustakil fikrlashi, til rivojlanganligi yutuklarida erkin foydalana olishi, hikoya kilish, muloxaza yuritish, uz tasavvurini izoxlay olish, tushunarli kilib bayon etish kabi omillar asosiga kuruladi. Shuningdek, bolaning maktabda ta'lim olishi uchun amaliy intellekt rivoji ya'ni, uning namunani chizish, aytib turiladigan bayoniy topshiriqni bajarishi xam muhim sanaladi. Va nixoyat, maxsus tayyorgarlik bolani savodxonlikka o'rgatish va uning maktabning 1 sinf o'quv dastur materialini yetarli darajada egallash haqidagi tushunchasini shakllantirishni nazarda tutadi.

Xulosa qilib aytganda bolalarni maktabda o'qitishning samaradorligini ko'p jihatdan ularning tayyorgarlik darajalariga bog'lik bo'ladi. Yosh avlodning barkamol shaxs bo'lib yetishishida dastlabki ta'sir etuvchi omil bu – oila va maktabgacha ta'lim tashkiloti xisoblanadi, bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashda maktabgacha ta'lim tashkilotlarining roli juda katta. Sababi bolaning dastlabki dunyoqarashi shakllanishida maktabgacha ta'lim tashkiloti psixologi, tarbiyachi va barcha pedagog xodimlarining o'rni katta ahamiyat kasb etmoqda, ya'ni bolalar ilk savodxonlikni maktabgacha ta'lim tashkilotlarida olmoqdalar. Maktabda o'qishga tayyorgarlik – MTT va oilada maktabgacha tarbiya yoshidagi bolaga qo'yadigan talablar orqali aniqlanadi. Bu

talabalarning o'ziga xos tomoni o'quvchining yangi sotsial psixologik o'rni, u bajarishga tayyorlangan bo'lishi lozim. Yangi vazifa va burchlardan kelib chiqadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O'n ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining o'n birinchi sessiyasi, 1992 y,www.lex.uz

2.O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonun // Oliy ta'lim. Me'yoriy-huquqiy va uslubiy hujjatlar to'plami. - T.: Istiqlol, 2019y. - B. 3-8b

3. «Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida" gi Qonuni. Bolaning qonuniy vakillari va pedagoglarning huquq va majburiyatlari. – Toshkent.: 2019 yil . "Xalq so'zi" gazetasi

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni, O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarini to'plami. – T., 2017. – B. 39.

5.G.Eshbekova bolalarni maktabga tayyorlash 'Ilm yo'li 'dasturi misolida 2020 y

6.Eshbekova G. Tarbiyachining ma'naviy qiyofasi hamda kasbiy mahoratining bolalar bilan muloqotni tashkil etish shakllariga ta'siri. Journal of innovations in social sciences Volume: 02 Issue: 01 | 2022 ISSN: 2181-2594

7. Eshbekova G. Bolalarni maktabga tayyorlashning yozishga o'rgatish bosqichida psixofiziologik xususiyatlarini inobatga olish masalasi Международный научный журнал № 6 (100), часть